

KREDIT OPERATSIYALARI HISOBI VA UNI ICHKI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

To'rayev Mirshod Tuxtamuradovich

Elektron pochta: mirshodturayev1994@gmail.com

O'zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12198672>

Annotatsiya: Ushbu maqolada kredit operatsiyalari, auditorning ish hujjatlari, alohida to'ldirilgan jadvallar va hujjatlar shaklida bo'lishi, izohlar, kredit tashkiloti rahbarlarining arizalari, foto suratlari, kredit tashkiloti hujjatlariga takliflar, ma'lum ma'noga ega bo'lgan hujjatlar va auditorlik tekshiruv rahbarlarining talabi bo'yicha unda ishtirok etuvchi auditorlar ro'yxati, ushbu standartga ko'ra majburiyligiga qarab auditning ish hujjatlariga doir hujjatlar majburiy va opsiyon hujjatlar haqida yoritilgan.

Аннотация: В этой статье раскрывает о сведения кредитных операциях, рабочие документы аудитора, виды отдельных заполненных таблиц и документов, замечания, заявления руководителей кредитных организаций, фотоснимки, предложения к документам кредитных организаций, документы, имеющие определенное значение, и перечень аудиторов, участвующих в нем по требованию руководителей аудиторских проверок, в соответствии с настоящим стандартом, в зависимости от их обязательности документация освещает обязательную и опционную документацию.

Abstract: This article contains information about credit transactions, auditor's working documents, in the form of separate completed tables and documents, comments, statements by heads of credit institutions, photographs, proposals for documents of credit institutions, documents of certain importance, and a list of auditors participating in it at the request of audit managers, in accordance with By this standard, depending on their binding nature, the documentation highlights the mandatory and optional documentation.

O'zbekiston tijorat banklari tegishli me'yoriy hujjatlar asosida jimoniy va yuridik shaxslarga milliy valyutad va xorijiy valyutada kreditlar beradi. Tijorat banklarida jismoniy va yuridik shaxslarga kredit berish, kredit uchun foiz to'lovlari va uning asosiy summasini undirish bilan bog'liq operatsiyalarni ko'rib chiamiz.

Bank va kredit oluvchi o'rtasida kredit shartnomasi tuziladi, yuridik shaxslar asosiy hisobvarag'i ochilgan bank bilan kredit shartnomasini tuzadi.

Yuridik shaxs bilan tuziladigan kredit shartnomada quyidagi hujjatlar bo'lish kerak:

- Balans va moliyaviy hisobotlar;
- Biznes reja;
- Kredit ta'minoti bo'yicha hujjat;

¹ SH.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2019 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2023 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi/ Xalq so'zi, 2017 yil, 16 yanvar.

– Zarur hollarda (kreditning shakliga qarab) boshqa qo‘shimcha hujjatlar talab etilishi mumkin.

Kredit tashkiloti tomonidan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha muomalalar amalga oshirilganda, boshqaruv risklari ma‘lumotlari, qimmatli qog‘ozlarning narxini yo‘qotilishi bo‘yicha tashkil etilgan rezervlar haqida ma‘lumotlar.

Auditorning ish hujjatlari tartibli bo‘lishi va undagi ma‘lumotlar oson o‘qiladigan hamda bir xil bo‘lishi lozim.

Auditorlik ish hujjatlaridagi ma‘lumotlar maxfiy hisoblanib, auditorlik firmasi tomonidan tarqatilmassligi kerak. Auditorlik firmasi kredit tashkilotining ish hujjatlarini taqdim etishi shart emas. Ammo Markaziy bank tomonidan 12 oktabr 2002 yilda chiqarilgan qaror bo‘yicha belgilangan talablar bo‘yicha auditorlik hisobotida yoritilishi lozim bo‘lgan savollar bilan birgalikda auditor tomonidan bankga bank hisobotini tasdiqlashi va baholashi, pul oqimi tahlili, sof foyda va kapitalni aniqlash, bank aktivlari va passivlarini boshqarish holati va shuningdek hamma ishchi hujjatlari nusxalarini taqdim qilishi lozim.

Auditorlik tekshiruvining asosiy qismi auditorlik ma‘lumotlarining turlarini, ²usullarini va manbalarini aniqlash hisoblanadi. Auditorlik firmalari qanday usullardan foydalanishi na ularni tasdiqlash uchun asoslari auditorlik xulosasining ishonchliligini tan olishga aniqlik kiritadi. Buxgalteriya hisobotining ishonchliligi to‘g‘risida asosli fikr xosil qilish uchun auditor yetarlicha auditorlik dalillarini olishi lozim. Bular:

- a) buxgalteriya hisobida muomala va qoldiqlarning to‘g‘ri aks ettirilishini sinchiklab tekshirish;
- b) analitik ishlar;
- v) ichki nazoratni tekshirish.

Bank auditori auditorlik dasturida auditorlik dalillarini to‘plash uchun qanaqa auditorlik amaliyotiga ega va ularning hajmiga e‘tiborini qaratishi lozim. Auditorlik tekshiruvi uchun ma‘lumotlarning qat‘iy hajmi belgilanmagan. Auditor o‘zining kasbiy qobiliyatidan kelib chiqqan holda, bankning buxgalteriya hisoboti haqida xulosa berishi uchun ma‘lumotlarning hajmini mustaqil ravishda belgilaydi. Auditorlik dalillarini olish usullarini aniqlashda moliyaviy ma‘lumotlar ogishishi mumkinligini hisobga olish kerak.

Auditorlik firmasi uchun tashqi auditorlik dalili eng ahamiyatli va ishonchli hisoblanadi. Keyingi o‘rinlarda esa aralash va ichki auditorlik dalillari turadi. Auditorlik dalillari ishonchli va yetarli bo‘lishi lozim. Ularning yetarliligi holatiga qarab, ichki nazorat tizimi bahosiga va risk darajasiga qarab belgilanadi. Auditor ob‘ektiv va asosli xulosa to‘zishi uchun yetarli darajada sifatli dalillar to‘plashi kerak. Auditorlik firmasining o‘zi to‘plagan dalillari, odatda, iqtisodiy sub‘ekt taqdim etgan ma‘lumotlar dan ishonchliroq hisoblanadi. Shuning bilan birga yozma shakldagi hujjatlar og‘zaki olingan dalillardai ishonchliroq hisoblanadi.

Auditorlik hisoboti ma‘lumotlarini olish manbalari quyidagilardan iborat: bank va uchinchi shaxslarning birlamchi hujjatlari; bankning buxgalteriya hisobi registrlari; bankning moliyaviy xo‘jalik faoliyati tahlili natijalari; bank va uchinchi shaxslarining og‘zaki ma‘lumotlari; bank ma‘lumotlarini bir-biri bilan va uchinchi shaxs ma‘lumotlari bilan taqqoslash; bank mulkining inventarizatsiyasi natijalari; yillik buxgalteriya hisoboti va boshqa hujjatlar. Auditorlik hisobotining sifati u olingan manbaga bog‘liq. Auditorlar uchun

2. Getman T.A. Dopolnitelno`e riski pri kreditovanii v nostrannoy valyute G`G` Bankovskoe delo. – 2014.

to'g'ridan-to'g'ri o'zlari tekshirgan xo'jalik muomalalari natijalari eng qimmatli hisoblanadi. Auditorlik hisobotining yetarliligini aniqlash auditorlik riski darajasiga, mustakil manbalardan guvohlarning mavjudligiga borliq. Agar auditor turli manbalardan olingan ma'lumotlardan foydalansa, u holda auditorlik riski darajasi kamayadi va aksincha auditorlarga iqtisodiy sub'ekt tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar yetarli bo'lmasa va u biror hisob yoki muomala bo'yicha yetarli ma'lumotlarni yig'a olmasa, auditorlik firmasi bu holatni hisobotda (rahbariyatga) aks ettirishi va bu masalaga auditorlik xulosasini bsrishda e'tibor berishi lozim.

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bank tizimi – bozor iqtisodiyotining eng muhim va ajralmas bo'laklaridan biri bo'lib, unda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlar u yoki bu tarzda butun mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini ko'rsatmoqda.

Bank tizimining samarali amal qilishi bozor munosabatlarini rivojlan-tirishning zaruriy sharti hisoblanadi. Boshqacha aytganda, mamlakatning iqtisodiy salohiyati, iqtisodiyotning alohida sektorlardagi barqaror rivojlanish, shuningdek uning xalqaro bozordagi mavqeining mustahkamlanishi ham bevosita moliya bank tizimida sodir bo'layotgani

Bank buxgalteriya apparatining tashkiliy tuzilishi va unda tashkil etiladi-gan bo'limlar soni amalga oshiriladigan operatsiyalar hajmiga va ularning avtomatlashtirilganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Zamonaviy taraqqiyot jarayonlari iqtisodchi kadrlardan makroiqtisodiy nazariya va eng zamonaviy makroiqtisodiy konsepsiyalar bilan yaxshi tanish bo'lishini, makroiqtisodiy tahlil malakasiga, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash ko'nikmalariga ega bo'lishni talab etadi. Shu sababli ham makroiqtisodiy jarayonlarning kechishi qonuniyatlarini, makroiqtisodiy muammolarni, makroiqtisodiy siyosat yuritgan holda ularni yechish yo'llarini turli modellar vositasida mantiqiy izchillikka amal qilgan holda o'rganish dolzarb vazifadir.

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini tahlil qilish, milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi muammolarni aniqlash hamda uni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqarish uchun bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Bugun mamlakat moliya-bank tizimidagi hamma o'zgarishlarga zudlik bilan moslashish, mijozlarning o'sib borayotgan ehtiyojlaridan doimo xabardor bo'lish va ularni hisobga olish zarur.

Bankning istiqboldagi rivojlanishi islohotlarning quyidagi asosiy yo'nalishlariga qaratiladi:

- maksimal darajada mijozga yo'naltirilganlik, bunda bank o'zining har bir mijozining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga va shu bilan birga mijoz munosabatlarining har bir to'plamidan olinadigan daromadni ko'paytirishga intiladi;
- biznesni diversifikatsiyalash va yangi bank mahsulotlarini tatbiq etish, bank foydasida salmoqli hissaga ega tayanch biznes yo'nalishlarini aniqlash;
- bankning passiv bazasi tuzilmasida korporativ mijozlar ulushini ko'paytirish, faol baza tuzilmasida – yuqori daromadli tarkibiy qismlarni – aholiga va kichik biznes sub'ektlariga kreditlarni ko'paytirish;
- bankdagi jarayonlarni optimallashtirish, bu boshqarish darajasini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilaydi; jarayonlarni optimallashtirish asosiy biznes jarayonlarni qayta ko'rib chiqishni va ish usullarini keng miqyosda ma'lum bir shaklga keltirishni nazarda tutadi.

Shu bilan bir vaqtda, bankning bugungi kundagi faoliyati ayrim kamchiliklar bilan bogʻliq, ularni bartaraf etmasdan, uning rivojlanish salohiyatini amalga oshirish toʻgʻrisida gapirish mumkin emas. Shular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bankning raqobat sohasidagi eng muhim ustunliklaridan foydalanishda past darajadagi samaradorlik: sotish tarmoqlari va mijozlar bazasi, bu mijozlar bilan ishlash yetarli darajada tashkil etilmaganligi va sotish salohiyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bogʻliq;
- avtomatlashtirilgan bank tizimi, u zamonaviy talablarga javob bermaydi;
- xalqaro moliyaviy institutlar bilan yoʻlga qoʻyilgan aloqalarning va hamkorlikning yetarli darajada emasligi;
- mijozlarga xizmat koʻrsatish sifatini nazorat qilishning murakkablashtirilganligi, amaliyot xavfining oshishi va filiallar tarmoqlarining yanada rivojlanishi munosabati bilan amaliyot chiqimlarining koʻpayishi.

Mamlakatimiz bank tizimini rivojlantirishga berilayotgan alohida eʼtibor va respublikamizdagi qulay makroiqtisodiy shart – sharoitlar yaratilganligining natijasida bank tizimini rivojlantirish va yanada isloh etib borish sohadida sezilarli ijobiy yutuqlarga erishilmoqda.

References:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloq qilish va barqarorligini oshirish xamda yuqori xalqaro reyting koʻrsatkichlariga erishishning ustuvor yoʻnalishlari toʻgʻrisida”gi Pq-1438-sonli qarori. 2020 yil 26-noyabr.
2. Vazirlar Maxkamasining «Banklarning kreditlari boʻyicha qarzdorlik oʻz vaqtida qaytarilmagan taqdirda undiruvni qarzdorning likvidli mol-mulkiga qaratish tartibini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi qarori. 04.12.2002 yilda №422 sonli.
3. Kredit axboroti milliy institutining maʼlumotlar bazasini shakllantirish xamda banklararo kredit byurosiga va tijorat banklariga kredit axbortlarni takdim etish tartibi toʻgʻrisida Nizom. 2004 y. 21 may.
4. Oʻzbekiston Respublikasining “Bank siri toʻgʻrisida”gi qonuni 30.08.2003 y. N 530-II
5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank tizimini erkinlashtirish va isloq qilish toʻgʻrisida” gi 2564-sonli farmoni. 2000 yil 21 mart
6. SH.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2019 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2023 yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi maʼruzasi/ Xalq soʻzi, 2017 yil, 16 yanvar.
7. Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida. 2017-2021 y.
8. www.cbu.uz
9. www.trastbank.uz